

**MA’NAVIY INQIROZDAN MA’NAVIY KAMOLOTGA: FALSAFIY
YONDASHUV****Davronov Ziet Davronovich**

TDIU, fals.f.d., prof.

Mamatqulov Shuhrat Turobovich

TDIU, fals.f.n., dots.

Mavlyanov Umid Nasriddinovich

GulDU, fals.f.b.f.d. (PhD.)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’naviyat tushunchasining mohiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni hamda uning insoniy barkamollik va axloqiy tarbiyada tutgan o‘rni falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Mualliflar mustaqillik yillarida ma’naviyatga berilgan e’tibor, I.A. Karimovning siyosiy-falsafiy qarashlari hamda tasavvuf va irfon maktabining (xususan, Ali Safiy ta’limoti asosida) ma’naviy kamolotga erishishdagi o‘rni haqida fikr yuritadilar. Shuningdek, maqolada ma’naviyat va ma’naviyatsizlik masalasi o‘zaro tahlil qilinib, zamonaviy ijtimoiy muammolar fonida insoniy qadriyatlar, axloqiy kamolot va tarbiyaning zarurligi asoslanadi. Yuksak ma’naviyatning inson, jamiyat va davlat taraqqiyotidagi roli konseptual asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar. ma’naviyat, yuksak ma’naviyat, ma’naviyatsizlik, I.Karimov, Ali Safiy, tasavvuf, irfon, axloqiy tarbiya, insoniylik, komillik, falsafiy qarashlar, zamonaviy jamiyat, ma’naviy inqiroz.

Annotation. This article explores the essence of the concept of spirituality, its role in societal life, and its significance in human moral development and personal growth through a philosophical lens. The authors discuss the attention given to spirituality in the years following Uzbekistan’s independence, including the political and philosophical views of Islam Karimov, and the role of Sufi and mystical traditions—particularly the teachings of Ali Safi—in attaining spiritual perfection. The article also examines the relationship between spirituality and the lack thereof, analyzing current social issues through the prism of moral values and ethical education. The role of high spirituality in the progress of individuals, society, and the state is conceptually elaborated.

Keywords. spirituality, high spirituality, lack of spirituality, Islam Karimov, Ali Safi, Sufism, mysticism, moral education, humanity, perfection, philosophical views, modern society, spiritual crisis.

Аннотация. В данной статье исследуется сущность понятия духовности, её роль в жизни общества, а также значение в нравственном воспитании и личностном

становлении человека с философской точки зрения. Авторы рассматривают внимание, уделяемое духовности в годы независимости Узбекистана, в том числе философско-политические взгляды Ислама Каримова, а также роль суфийской и ирфанийской традиции — в особенности учения Али Сафия — в достижении духовного совершенства. Также в статье анализируется взаимосвязь между духовностью и бездуховностью, современные социальные проблемы рассматриваются сквозь призму нравственных ценностей и морального воспитания. Концептуально раскрывается роль высокой духовности в развитии личности, общества и государства.

Ключевые слова. *духовность, высокая духовность, бездуховность, Ислам Каримов, Али Сафий, суфизм, ирфан, нравственное воспитание, человечность, совершенство, философские взгляды, современное общество, духовный кризис.*

Ma'lumki, oxirgi yillarda ma'naviyat haqida juda ko'p mulohazalar, oddiy fikrlar, falsafiy qarashlar hamda uning o'rni va ahamiyati, mazmun va mohiyati haqida ijobiy qarashlar o'rtaga tashlanmoqda. Bu bejiz emas albatta. Chunki, sobiq ittifoq davrida ma'naviyat xalqimizning qalbida saqlangan bo'lsa-da, ammo bu falsafiy tushunchani tilga olishning o'zi mushkul edi.

U asosan ideologiya, ya'ni mafkura bilan qorishib ketgan edi. Ming shukrlar bo'lsinkim, mustaqillik sharofati ila ma'naviyat tushunchasi o'zining maqomiga ega bo'la boshladi. Bu endilikda sir emas. Mamlakatimiz taraqqiyotining barcha sohalari kabi mazkur sohada ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan, Birinchi Prezident I.Karimov Prezident etib saylangan kuni – 1990 yil 24 martdayoq ma'naviyat haqida so'zlab: “Prezident faoliyatining, respublika davlat tashkilotlarining muhim vazifalaridan biri – xalqni, insonni axloqiy va ma'naviy yuksaltirishdir” degan bo'lsa, shu mavzuni keyinroq davom ettirib: “Men Prezident sifatida odamlarning ma'naviy tarbiyasi, tinchlik va xayrli ishlar maqsadida harakat qilayotgan har bir kishini qo'llab-quvatlayman. U bilan hamkorlik qilaman”, - deb ta'kidlagan edi. Shu kabi fikrlar 1992 yilning 5 apreli va 2 iyulida Oliy kengashning sessiyasida, 31 avgustdagi mustaqillikning bir yilligiga bag'ishlangan ma'ruzada, 8 dekabrda Oliy kengashning 11 sessiyasida, Viloyat, shahar va tuman hokimlari bilan uchrashuvlarda, 1993 yil 6 martda Oliy Kengashning 12 sessiyasidagi, aprel oyidagi qalam ahli bilan bo'lgan uchrashuvda, 31 avgustda Amir Temur haykalining ochilishida, 2 sentyabrdagi Oliy kengashning 13 sessiyasidagi ma'ruzalarida aytilgan. I.Karimov ma'naviyatning ahamiyati, qadr-qiymati, buguni va kelajagi haqida qayg'urib, o'z mulohazalarini bildirganki, bu sohada izchillikni ko'rib hayratda qolasan kishi. Men I.Karimovning ikki-uch yil ichida aytgan fikrlarini eslatar ekanman, uzoqni ko'zlab aytilgan

o‘sha fikrlarning hayotga tatbiq etilganini va etilayotganini ko‘rib beixtiyor quvonaman. Fikrimni tasdig‘i sifatida shuni aytmoqchimanki, o‘tgan asrning 90-yillarida hozirgi davrlardagidek terrorizm, diniy ekstremizm, giyohvandlik, bir jinsdagi kishilarning turmush qurishlari, dunyoning u yoki bu chetida qirg‘inbarot urushlarning kelib chiqishi, qisqa qilib aytganda, ma‘naviyatsizlik, ma‘naviy inqiroz haqida, ilg‘or deb atalgan mamlakatlarda ham deyarli so‘z yuritilmas edi. Agar haqiqatdan ham ma‘naviyatga e‘tiborsizlik bilan qaralsa avvalo, tabiat va inson kelajagini xonavayron qilishga olib borilmaydimi? Buyukman deb atalayotgan mamlakatlar tabiatdagi foydali qazilmalar, suv resurslarining, cheklanganligiga qaramasdan o‘z manfaatlari yo‘lida ayovsiz foydalanmoqdalar. Amerika konstitutsiyaviy sudi, Evropaning bir qancha mamlakatlaridagi ba‘zi doiralar bir jinsli insonlarning turmush qurishiga xayrixohlik bilan qarashi eng yomon illat. Bunday holatlar yuzasidan qonunlarning chiqarilishi yuksak ma‘naviyatlilikdanmikin?

Bunday yondashish tabiiyki insoniylikni, insonni o‘zini asrash emasku. Kelajak avlodni esdan chiqarish emasmi? Ollohga shirk keltirib insonni laboratoriyada yaratish ishlariga harakat qilayotganlarda barkamollik, komillik tugul yuksak ma‘naviyat bormi deging keladi. Ana shu jarayonlarni qalbdan his qilgan Birinchi Prezidentimiz “Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch” asarini yozdiki, ushbu asarni nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari tillariga (beshta), balki arab, turk tillariga ham tarjima qilinib, Misr arab respublikasi, Saudiya Arabistoni podshohligi, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn kabi mamlakatlarda taqdimot marosimlari o‘tkazildi. Demak, yuksak ma‘naviyat yildan yilga o‘z dolzarbligini namoyish etib bormoda.

Ma‘naviyat tushunchasining mazmuni haqida gapirganda I.Karimov: “Insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan o‘rin tutadi”, - deb ta‘kidlaydi. Demak, insoniylik yuksak ma‘naviyatda, yuksak ma‘naviyat insoniylikdadir. To‘g‘ri, ma‘naviyatga ko‘plab ta‘riflar berilgan, bundan keyin ham beriladi. Sababi inson tabiati, jamiyat hayoti bir joyda to‘xtab qolmaydi. Lekin baribir bizning fikrimizcha, insonning hayot negizi uning ma‘naviyatiga borib taqalaveradi. Shu sababli ham, I.Karimov: “Ma‘naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir”, - deb ta‘rif bergan. Bu ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, inson mohiyati jihatidan birlamchi o‘ringa qo‘yilgan. Bu ta‘rifda kelajakda beriladigan barcha ta‘riflar uchun metodologik (uslubiy jihatdan) asos bor. To‘g‘ri, ma‘naviyat tushunchasiga har qanday ziyoli inson o‘zining dunyoqarashi, falsafiy yondashuvi va e‘tiqodi, ongi, his-tuyg‘usi jihatidan yondashadi, ta‘riflaydi, xususiyatlarini tushuntiradi. Inson o‘zining ma‘naviyatida aks etishi tabiiy albatta. Birov marhamatli yoki badjahl, birov mehnatsevar yoki dangasa,

birov manman yoki kaltafahm, birov baxil yoki saxiy, birov yoqimli yoki yoqimsiz va hokazolar bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan insonlar farqlanadilar.

Demak, ma’naviyat tushunchasi keng qamrovli umumiy falsafiy tushuncha bo‘lganligi uchun uni hayotda qo‘llash va mazmun-mohiyatini aniq tasavvur qilish davr taqozosidir. Afsuski, ma’naviyat tushunchasini iste’molga kiritganda uning qarama-qarshi tomonlarini ba’zilar unutadi. Hatto ta’kidlash lozimki, ba’zi bir murabbiylar ham bunga e’tiborni qaratmaydilar. Ular ma’naviyat deganda faqat ijobiy jihatlar nuqtai nazaridan yondashadilar, xolos. Holbuki, bu tushunchaning ikkinchi qismi ma’naviyatsizlikdir. Bu jihatni ta’kidlashimdan maqsad ma’naviyat haqida so‘z yuritilganda, ayniqsa, tarbiyaviy jihatlarida ushbu tomonni ham esdan chiqarmaslik lozim. Bunday xulosaga kelishimning sababi, ko‘pgina ommabop va ilmiy maqola, risola, qo‘llanma, darsliklarda ma’naviyatsizlik so‘ziga deyarli jiddiy yondashilmaydi. Misollar bilan tushuntirilmaydi. Go‘yoki butun insoniyat to‘la ma’naviyatli. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, oramizda kimdir “rahmon” izmida yursa, kimdir “shayton” izmida yuradi. Shu bois ma’naviyatsizlikka ham e’tiborni qaratish ayni muddaodir. Aslida, qisqa qilib, ma’naviyatsizlik ma’naviyatlikning aksidir deb tushuntirish ham mumkin. Ammo mening ko‘p yillik tajribam shuni ko‘rsatadiki, birorta tarbiyachi yoki ma’ruzachi bunga e’tiborni qaratgan emas. Zero, ma’naviyatsizlik – bu inson va insonlarning ijobiy faoliyatiga zid bo‘lgan hodisalar va zararli xislatlardir. Bu ta’rifni isbotlaydigan son-sanoqsiz misollar bisyor. Muammoga bunday yondashish ayniqsa, yoshlar faoliyati bilan bog‘liq. Zararli oqibatlar har qadamda uchraydi. Ularni yoshlarning barchasi ham to‘la tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun ham mening fikrimcha, ularga ma’naviyatsizlikning, mazmun-mohiyatini chuqur anglashini lozim deb bilaman. Ma’naviyat tushunchasiga yalpi jihatdan yondashib xulosa qilib yurish unchalik yaxshi natija bermaydi.

Aslini olganda, umumiy ma’naviyatni bosqichlardan iborat ekanligiga etiborni qaratish lozim. Mening fikrimcha, umumiy ma’naviyat – ma’naviyat – yuksak ma’naviyat – barkamollik – komillik kabi tushunchalarni bir-biridan farqlash lozim. Afsuski, ushbu maqolada hajmni hisobga olib ular ustida to‘xtalishni iloji bo‘lmadi. Bu haqida maqola muallifining “Barkamollikka da’vat maktublari”, (Toshkent. “Tamaddun”, 2017.) kitobida o‘qish mumkin.

Ma’naviyat so‘zin, qila ol tahlil ,

Bu so‘zda mujassam yaxshi–yomonlik.

Yaxshilik ishlarin, qilaver tetik,

Ma’naviy yuksalsang, kelar yaxshilik.

Bizning fikrimizcha, bu muloqotning tavsifiga ko‘ra tasavvuf irfoniy ma’naviyati, insonda, eng avvalo, ikki ma’naviylik mavjudligiga asoslanadi: birinchisi – insonga ota-

onasi, tabiat bergan uyg‘unlik, ta’lim-tarbiya vositasida shakllanadigan ma’naviyat. Ma’naviyatning mazkur birinchi shaklini har qanday kishi o‘z mehnati, jiddu-jahdi, ilm olish, yuksak axloqiy sifatlariga ega bo‘lish, xalq dardini o‘z dardi deb bilish va uning og‘irini engil qilishga intilishi bilan egallashi mumkin. Ma’naviyatning ikkinchi shakli – hammaga nasib etmaydigan Xudo tomonidan ato etiladigan tasavvufiy-irfoniy ma’naviyatdir. U ham o‘z o‘rnida muayyan izchillikda – shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat maqomlarida shakllanadi. Ma’naviyatning mazkur yuqori shakli yana Allohning hidoyati bilan, lekin bevosita piru murshid rahnamoligi va buni tolib, solik tomonidan butun vujudi, shuuri bilan, chin ixlos bilan qabul etishi, bajarishi oqibatida shakllanadi.

Ma’naviyatning mazkur yuqori bosqichining shakllanish kontseptsiyasi, mexanizmi va o‘ziga xosligini Ali Safiy quyidagicha asoslab beradi: «Maxfiy qolmasunkim, vujudi ma’naviy so‘fiyya (q.s.a.) istilohlarida valodati soniyya (ikkinchi, qayta tug‘ilish)din iborat tururkim, solik mashima tabiatidin va oning ahkomidin (inson tanasining tabiiy o‘sishi, jamiyatdagi o‘sinh va ularning qonunlaridan) chiqmog‘i turur, ondog‘kim, ... bul vujudning partavidin onga asare tushubtur. Bas, majoz tariqi bila oytsa bo‘lurkim, onga vujudi ma’naviy hosil turur». Bu o‘rinda yuksak ma’naviyat, ya’ni ma’naviyatning yuqori shakliga etishish, erishish insonning ikkinchi, qayta tug‘ilishi bilan barobardir. Mazkur bosqichga ko‘tarila olgan inson o‘zining holatidan mamnun bo‘ladi, o‘zining vujudini Haq vujudi bilan uyg‘un holda ko‘radi, butun borlig‘i bilan ma’naviyat va yuksak axloqiy ideallarga talpinadi, ma’naviy takomillasha boradi.

Oxir-oqibatda vujudi ma’naviyning asosi, sababi, maqsadi, yuksak cho‘qqisi Alloh taoloning o‘z qudrati, bilimi, adli, mag‘firati va muhabbatining benihoya balog‘atiga borib taqalishini Ali Safiy quyidagi g‘oya bilan asoslab bergan: «Odamiylar Haq subhonahug‘a muhtoj tururlar. Vaqtekim, Olloh taolo o‘z ilmi qadimi bila bilur erdikim, odamiy bashariyat muqtazosi andozasi bila nonu suv va asbobi dunyaviyg‘a muhtoj bo‘lg‘usidur. Lojaram o‘zining jamoli qayyimiyyatini mazohiri ash’yodin zohir qildi, to odamiy har nimarsag‘a muhtoj bo‘lsa, darhaqiqat Haq subhonahug‘a muhtoj bo‘lur, oning qayyimiyyati vajhidin» g‘oyasi insonni Yaratganga muhtoj ekanligini asoslagan.

Boshqa bir o‘rinda, Ali Safiy Xoja Ahrorning o‘z muridlari, xodimlariga siyosat va malomatlar qilib, aytgan quyidagi so‘zlari ham haqiqiy ma’naviyat aslida odamlarga madad, adl-insof, zulm-zo‘ravonlik dastini kesish, odamlarga naf, foyda keltirish ekanligini ta’kidlagan. Uning «Ko‘chalarda oylanib yurunglar, bir ish etinglarkim, odamlar sizlardin manfaat olsunlar. Har vaqt ul vajhkim, eta bilsangizlar, o‘zlaringiz kam etungizlar (ya’ni, kamtar, kamsuqum bo‘linglar), sa’iy qilungkim, shuhudi ahadiyyatda kasrat hosil bo‘lsun ... arbobi valoyati xossadin afrodi insoniyning akmalig‘a bul ma’ni bar sabili nadra hosil bo‘lur» degan fikrida odamlarning o‘zaro hamkorikka da’vat namoyon bo‘ladi.

Demak, Ali Safiy fikricha, kishi qanchalik zohidu obid bo‘lmasin, u o‘zining butun borlig‘ini xalqning, ommaning muammolarini hal qilishga, og‘irini engil qilishga, shuningdek, kamtar, kamsuqum bo‘lishga qaratishi bilan ma‘naviy kamolotga erishadi.

Ma‘naviy barkamol odam yomonlik, kibru havo, zulm, fisqu fasoddan qochishi, ayniqsa, o‘z niyati, so‘zlari va amalida takabburlikka yo‘l qo‘ymasligi lozim. Hadisi sharifda «takabburga takabburlik – eng buyuk sidq, sadaqa va ixlosdir» degan xabarga Xoja Ahrorning sharh berganligini aytib, Ali Safiy «Takabbur ikki nav turur: mazmum va mahmud (qoralanadigan va maqtaladigan). Mazmum bo‘lg‘on takabbur Xudoning bandalarig‘a o‘zini ulug‘ tutmoq va haqorat ko‘zi bila qaramoq va o‘zini olardin ziyoda-yu yaxshi ko‘rmak. Va mahmud bo‘lg‘on takabbur ... asl turur va fano martabasiga mavassal turur». Ya‘ni gap bu erda haqiqiy takabburlik – kibr Allohga xos bo‘lishi, o‘jiz bandalar esa kibrdan uzoqlashmoqliklari lozimligi uqtirilmoqda.

Ali Safiy ma‘naviy vujud kamoloti, ayni paytda, xalqqa aralashish behuzur qilganda ko‘p istig‘for aytish bilan, ro‘za tutish bilan, shuningdek, shahvoniy quvvatni tinchlantirish bilan zohiriy vujudni kamol toptirish, uning yordamida «martabai hayvoniyatni kamol toptirishdur», deb ta‘kidlagan va fikrini chin ma‘naviy vujud sohiblari, ya‘ni «ahli irshod va avliyoullohlar Rasul alayhissalom ulumi xoslarig‘a voris turur» deb davom ettirgan.

Umuman Ali Safiy fikricha, ma‘naviy-axloqiy darajaga erishish uchun «ikki nimarsadin birini ixtiyor etsalar: biri ulkim, halol vajhdin bir nimarsa qabul etib, ziroat amrig‘a mashg‘ul bo‘lsinlar» yoki «o‘zlarini tashlasunlar, bo‘lg‘on-bo‘limg‘ondin andishga etmasunlar va sa‘yi balig‘ ko‘rguzsinlarkim, o‘z boyistini o‘zga bir odamning boyistida yo‘q etsunlar to saodati azimg‘akim, «Fano filloh» turur musharraf bo‘lurlar». Demak, Ali Safiy ta‘limotiga ko‘ra, inson ma‘naviy kamoloti ikki yo‘l bilan: biri foydali mehnat, kasb-kor, dehqonchilik bilan, boshqasi esa sof irfoniy riyozatlar, jiddu-jahd bilan (bu ham Alloh oldida musulmonlar haq-huquqlarini himoya qilish, kafolatlashga olib boradi) amalga oshadi. Ma‘naviy kamolotga erishish yo‘lida kishi o‘z boshiga tushayotgan g‘am-tashvish, riyozat va qiyinchiliklarni sabot va matonat bilan engib o‘tishi zarur. Bu yo‘lda esa unga, avvalo, ilm, niyat va maqsad ko‘makchi bo‘ladi. Uning uchun maqsad Allohning nazari va xalqning hurmatiga sazovor bo‘lishdir. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, yangi O‘zbekistonda uning bu g‘oyalari to‘liq amaliyotga joriy etilmoqda, bir tomondan aholi turli qatlamlari uchun kasb egallashning yangi yo‘nalishlari ochilmoqda, xususiy tadbirkorlar ishlab chiqarish korxonalarida malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun o‘quv kurslari tashkil etilmoqda, kasb-hunar kollejlari va monomarkazlarda kadrlar maqsadli tayyorlanmoqda, oliy malakali kadrlar taqchilligiga barham berish uchun xususiy oliy ta‘lim muassasalari tashkil etilmoqda. Ikkinchi tomondan, ularning iymoni butligi, vijdoni pokligini ta‘minlash uchun diniy ma‘rifat va ta‘limning ahamiyati oshmoqda. So‘nggi yillar

davomida yurtimizda bir necha islomiy ta’lim muassasalari (Qashqadaryoda Nasafiy nomli aqida maktabi, Buxoroda tasavvuf maktabi, Namanganda islom bilim yurti, Samarqandda Hadis maktabi) tashkil etilishi fikrimizning dalili bo’la oladi.

Ali Safiy ta’kidlaganidek, odamning ma’rifat, ma’naviy-axloqiy kamoloti faqat jiddu-jahd yoki yuksak irfoniy riyozatlardagina emas, balki oddiy insonning kundalik hayoti, turmush tarzi, kiyinishi, ovqatlanish madaniyatida o’zini qanday tutishida ham namoyon bo’ladi. Masalan, «Luqmada va taomda ehtiyot etmak lavozimdandur. Taom pishiruvchi kishi, kerakkim, ... ogohlik yuzidin o’choqg’a o’tun qo’yub o’t yoqsa, har tabhidakim, oning boshida g’azab o’tgan bo’lsa, yo parishon so’zlar oytulgon bo’lsa ... bu taomg’a zulmate tururkim, bizg’a oni emak ravo ermastur», degan fikrida lavozimdagi kishining o’z faoliyatini nazorat qilmog’i lozimligi, chunki u o’zi bilan bir qatorda o’zgaralar taqdiri uchun mas’ulligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Фахруддин Али Сафий. Рашахоту айнил-хаёт (Обихаёт томчилари). –Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2004. –Б. 282-283.

2) Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.

3) Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.

4) Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.

5) Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.

6) Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.

7) Мавлянов, У. Н. (2022). ONTOLOGICAL VIEWS OF ALI SAFI. *ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ*, (1 (16)).

8) Мавлянов, У. (2025). АЛЛОМАГА НАВОИЙ ТАЪРИФИ. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(7), 142-146.

9) Мавлянов, У. Н., & Тангирбердиев, Ш. (2025). АЛИ САФИЙ ҲАЁТИ ВА МЕРОСИ ҲАҚИДА. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 78-84.

10)Мавлянов, У. Н. (2025). АЛЛОМАНИНГ МЕРОСИДА БОРЛИҚ ВА БИЛИШ МАСАЛАЛАРИНИНГ ҚЎЙИЛИШИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 73-77.

11)Мавлянов, У. Н. (2025). БУЮК СИЙМОЛАР БЕШИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 68-72.

12)Мавлянов, У. Н. (2018). Жизнь и творчество Али Сафи. *Наука и образование сегодня*, (1 (24)), 42-44.

13)Nasriddinovich, M. U. (2025). ALLOMANING MEROSI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR. *PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE*, 2(22), 12-16.

14)Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.

15)Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O ‘ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.

16)Ismoil, R., Dilshod, A., & Zilola, A. (2025). O ‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKPARVARLIK TAMOIYILLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. *TA’LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 203-214.

17)Davron O‘g‘li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 600-605.

18)Шодмонкулова, М. (2025). ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДАГИ ЎРНИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 176-181.

19)Шодмонкулова, М. (2025). ҒАРБ ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 164-169.

20)Шодмонкулова, М. (2025). Либерал-Демократик Ғояларнинг Тараққиёт Стратегиясини Амалга Оширишдаги Ўрни. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 170-175.

21)Шодмонкулова, М. М. (2025). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА СИЁСИЙ ЛИБЕРАЛИЗМНИНГ АҲАМИЯТИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 4(38), 354-357.

22)Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

23)Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. *Наука, образование и культура*, (4 (48)), 85-87.

24)Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(12), 72-78.

25)Nematov, R. A. (2024, December). ESTABLISHMENT OF THE ADMINISTRATION OF THE WESTERN TURKISH EMPIRE IN THE KHORAZM OASIS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 2, pp. 43-49).